

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI

Ashirqulova Qurbonoy Normo'min qizi

Qarshi Davlat Texnika Universiteti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedra talabasi
ashirqulovaqurbonoy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining erkin va farovon hayot garovi ekanligi yoritib beriladi. Bundan tashqari, eski Konstitutsiya mustaqillik dastlabki yillari uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevori bo'lsa, yangi tahrirdagi konstitutsiya esa -jamiyat, davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni zamon talablariga moslash, huquq va erkinliklarni kengaytirish, davlat boshqaruvi tizimini yangilash maqsadida ochiqlab berilganligi ko'rsatiladi. Albatta, eski va yangi tahrir-har biri o'z davri uchun muhim bo'lgan va hozirgi zamon ehtiyojlariga moslashuvini ko'zlagan. Bu ma'lumotlarni ushbu maqolada ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Asosiy qonun, iqtisodiy tizim, asosiy prinsiplar, asosiy huquq, qonun ustuvorligi, poydevoriy tamoyillar, jamoa birlashmalari, konstitutsiyani o'zgartirish, hokimiyat organlari,

Kirish Biz bilamizki, hozirgi kunda mamlakatning asosiy qonuni bo'lmish konstitutsiya davlatning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy tizimning poydevorini belgilaydi. Eski tahrirdagi konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va shu kundan boshlab O'zbekistonda Konstitutsiya kuni sifatida nishonlanadi. Konstitutsiya asosan, Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Biz bularning bosqichma-bosqich joylashuvini ko'rib o'tishimiz mumkin.

1-bo'lim: Asosiy prinsiplar.

Davlat tuzilishini, suverenitet, xalq hokimiyatchiligi, qonun ustuvorligi hamda tashqi siyosat kabi davlatning poydevoriy tamoyillarini belgilaydi. Bu bo'lim, asosan, 1-17 gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi.

2-bo'lim: Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.

Bu bo'lim fuqarolarga taminlangan huquq, erkinliklar hamda ularning davlat va jamiyat oldidagi burchlarini qayd etadi va 18-52 gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi.

3-bo'lim: Jamiyat va shaxs.

Bu bo'lim jamiyat, mulk, jamoa birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari kabi siyosiy tadbirlarni tartibga soladi va 53-67 gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi.

4-bo'lim: Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi va

5-bo'lim: Davlat hokimiyatining tashkil etilishi.

Ushbu bo'limlarda davlatning hududiy tuzilishi, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari, sud, prokuratura, moliya, mudofaa kabi davlat institutlari to'g'risidagi normalarni belgilaydi. Ushbu bo'limlar 68-75dan 76-126gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi.

6-bo'lim: Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.

Bu bo'lim, asosan, Konstitutsiyani o'zgartirish, yangilash tartibini belgilaydi. Bu bo'lim 127-128gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi.

Konstitutsiyaning mazmuni va ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni tushunishimiz mumkin:

- Konsignatsiya davlat tuzilishi, hokimiyat bo'linishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda jamiyatning asosiy qoidalarini belgilaydi
- U inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida tan oladi.
- Konstitutsiya O'zbekistonni demokratik, huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat deb e'tirof etadi.

Asosiy qism: Eski tahrirdagi konstitutsiyamiz, asosan, mustaqillikdan keyingi O'zbekiston davlatini tashkil etish uchun asosiy huquqiy poydevor bo'lgan. Endi yangi konstitutsiyamiz haqida gapiraydigan bo'lsam, Yangi tahrirdagi konstitutsiya 2023 -yil 30-aprelda xalqaro referendum orqali yangilanishlar qabul qilindi. Yangilangan konstitutsiya 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Hujjat tarkibida 27 bob, 155 moddaga kengaytirildi.

Yangilanishlar fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy huquqlari va davlatning jamiyat oldidagi majburiyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan deb aytsak ham bo'ladi. Masalan, yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar huquqlari, matbuot erkinligi, davlat-jamiyat munosabatlari, ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi bilan bog'liq bir qancha yangi modda va jihatlar joriy etilgan. Albatta, "Nima uchun yangilanish zarur bo'ldi?" -degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga bir talay sabab va maqsadlar mavjud. Masalan:

1. Fuqarolarning ijtimoiy va fuqarolik huquqlari kengaytirib, zamon talablariga moslashishi.
2. Davlat boshqaruvi, hududiy tuzilish, davlat hokimiyati organlari va ularning vakolatlarini qayta tartibga solish, soddalashtirish va samaradorligini oshirish.
3. Jamiyatdagi o'zgarishlar -siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatlarini inobatga olib, huquqiy asosni moslashtirish.

Konstitutsiyada nima o'zgargani — umumiy tendensiyalar. Yangi tahrirda ko'rsatilgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki:

- Davlat rolini kengaytirish — faqat hukmron hokimiyat emas, balki jamiyat, fuqarolar huquqlari va ijtimoiy adolatni kafolatlash organi sifatida qayta shakllantirilgan.
- Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, himoyasi va shaxsiy maqomi oldingi holatdan ancha kengaytirilgan.
- Davlat boshqaruvi va hokimlik organlari tuzilmasi ham zamon talablariga mos ravishda qayta tartibga solingan — boshqaruv samaradorligi, sud mustaqilligi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning asosiy farqi, eski konstitutsiyaga nisbatan kengaytirilganligi desak ham bo'ladi. Quyida yangi konstitutsiyaga kiritilgan asosiy o'zgarishlar ro'yxati:

1. 1-modda yangilandi: endi O'zbekiston "suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb tavsiflanadi — bu davlat tashkiloti va maqsadlarida yangi tamoyillar belgilanganini anglatadi.

2. "O'ta huquq va erkinliklar + fuqaroning himoyasi" bo'yicha moddalarga katta kengayish kiritildi: fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlatning jamiyat oldidagi majburiyatlari, jamiyat-inisanning huquqiy himoyasi ko'lamlari kengaydi.

3. Huquq himoyasi va sud mustaqilligi mustahkamlandi: sud tizimi, sud hokimiyati, sudya mustaqilligi hamda huquqiy jarayonlarda adolat ta'minoti mustahkam nazarda tutilgan.

4. Media erkinligi va ma'lumot erkinligi uchun yangi kafolatlar qo'yildi: matbuot faoliyatini cheklash – qonuniy mas'uliyat sababiga aylantirildi.

5. Xususiy mulk — jumladan, yerga oid huquqlar bilan bog'liq normalar ko'rib chiqildi: endi yer xususiy mulk bo'lishi mumkinligi aniq belgilandi.

6. Prezident vakolati va davlat boshqaruvi strukturasi o'zgarishlar: Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.

7. Lokal hokimliklar va mahalliy boshqaruv tizimida ham o'zgartirishlar: mahalliy davlat organlaridagi rahbarlik va hokimlik strukturasi qayta ko'rib chiqildi — hokimlar (governor) sobiq amalda bo'lgan mahalliy kengash rahbarligi lavozimlaridan ayrildi.

8. Ijtimoiy davlat va ijtimoiy adolat tamoyillari qo'yildi: davlat faqat admin-hokimiyat emas, balki jamiyatning farovonligi, ijtimoiy himoyasi va adolatini ta'minlovchi organ ekanligi kuchaytirildi.

9. Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, maxfiylik va kommunikatsiya huquqlari — yangi kafolatlar: davlat elektron axborot, shaxsiy ma'lumotlar, maxfiy aloqa va xatlar sirini himoya qilish majburiyatini oldi.

10. Konstitutsiyaviy sud tizimi va sudlarning huquqiy holati qayta tartiblandi: sudyalarning mustaqilligini ta'minlash, sud hokimiyatining aniqligi va konstitutsiyaviy nazorat mexanizmlari kengaytirildi.

Xulosa

Mening xulosam shundan iboratki, yangi tahrirdagi konstitutsiyada imkoniyatlarning kengayganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Biz uchun imkoniyatlar katta. Yangi tahrirda ko'rsatilgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki. Davlat rolini kengaytirish — faqat hukmron hokimiyat emas, balki jamiyat, fuqarolar huquqlari va ijtimoiy adolatni kafolatlash organi sifatida qayta shakllantirilgan. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, himoyasi va shaxsiy maqomi oldingi holatdan ancha kengaytirilgan.

Davlat boshqaruvi va hokimlik organlari tuzilmasi ham zamon talablariga mos ravishda qayta tartibga solingan — boshqaruv samaradorligi, sud mustaqilligi, huquqiy tizim va

davlat-fuqaro munosabatlari yangicha belgilangan. Biz bu keng qo'lamli imkoniyatlardan samarali tarzda foydalanishimiz lozim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. .”O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”.
2. A.Saitfutdinov-“O’zbekiston Konstitutsiyaviy huquqi “.
3. .X.Xudayberganov-“Konsitutsiya va jamiyat taraqqiyoti “.
4. ”Kons-xalq irodasi ifodasi”.(turli mualliflik to’plami).